

ZAMONAVIY O'QITUVCHIGA QO'YILADIGAN DIDAKTIK TALABALAR

Xudoyberganova Sevinchoy Urazmat qizi

Qo'qon DPI talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada zamonaviy o'qituvchiva unga qo'yiladigan didaktik talablar bayon qilingan. Shuningdek, maqolada bugungi kunda pedagogning shaxsiy va kasbiy sifatlarini pedagogik mahoratda namoyon qila olish zarurati ham asoslangan. Jamiyat tamonidan o'qituvchiga qo'yilayotgan talablar bayon qilingan.

Kalit so'zlar: Pedagog, ta'lif, talab, rivojlanish, e'tibor, tarbiya jarayoni, tashkilotchilik, munosabat.

ДИДАКТИЧЕСКИЕ ТРЕБОВАНИЯ К СОВРЕМЕННОМУ УЧИТЕЛЮ

Xudoyberganova Sevinchoy Urazmat қизи

студент Кокан ГПИ.

Абстрактный: В данной статье описывается современный учитель и дидактические требования к нему. Также в статье обоснована необходимость проявления личностных и профессиональных качеств педагога в педагогическом мастерстве. Описаны требования, предъявляемые к учителю обществом.

Ключевые слова: Педагог, образование, потребность, развитие, внимание, учебный процесс, организация, отношение.

DIDACTIC REQUIREMENTS FOR THE MODERN TEACHER

Khudoyberganova Sevinchoy Urazmat girl

Kokan is a student of SPI

Abstract: This article describes the modern teacher and didactic requirements for him. Also, the need to demonstrate personal and professional qualities of a pedagogue in pedagogical skills is based on the article. The demands placed on the teacher by the society are described.

Keywords: Teacher, education, demand, development, attention, educational process, organization, attitude.

Kirish. O'qituvchilik – inson jamiyati tarixi boshlangandan e'tiboran davom etib, shu bilan birga hamma vaqt jamiyat va jamoatchilik tomonidan e'tiborga loyiq e'zozlab kelingan kasbdir. "... O'qituvchi – deydi Al Forobiy, - aql-farosatga, chiroylig nutqqa ega bo'lishi va o'quvchilarga aytmoqchi bo'lgan fikrlarini to'la va aniq ifodalay olishni bilmog'i zarur." U o'z fikrini davom ettirib: "o'qituvchi va rahbarning vazifasi dono davlat rahbari vazifasiga o'xshaydi, shu sababli o'qituvchi eshitgan va ko'rghanlarining barchasini eslab qolishi, aql-farosatga, chiroylig nutqqa ega bo'lishi, o'qituvchilarga aytmoqchi bo'lgan fikrlarini to'la va aniq ifodalab berishni bilmog'i lozim. Shu bilan birga o'z nomusini qadrlashi, adolatli bo'lmog'i lozim. Ana shundagina u insoniylikning yuksak darajasiga ega bo'ladi va baxt cho'qqisiga erishadi," – deb ta'kidlaydi.[1,28]

Abu Ali Ibn Sinoning fikricha, "... O'qituvchi matonatlari, sof vijdonli, rostgo'y va bolani tarbiyalash metodlarini, ahloq qoidalarini yaxshi biladigan odam bo'lmog'i lozim. O'qituvchi o'quvchining butun ichki va tasjqi dunyosini o'rganib, aql qatlamlariga kirolmog'i lozim." [2,36]

Index: [google scholar](#), [research gate](#), [research bib](#), [zenodo](#), [open aire](#).

https://scholar.google.com/scholar?hl=ru&as_sdt=0%2C5&q=wosjournals.com&btnG

<https://www.researchgate.net/search/publication?q=worldly%20knowledge>

<https://journalseeker.researchbib.com/view/issn/3060-4923>

Nosiriddin Tusiy o‘zining “O‘qituvchilarni tarbiyalash to‘g‘risida” degan asarida shunday deydi: “... o‘qituvchi munozaralarni olib borishi, rad etib bo‘lmaydigan darajadagi isbot qilishni bilishi, o‘z fikrlarining to‘g‘riliqiga ishonishi, nutqi esa mutlaqo toza, jumlalari mantiqiy ifodalanadigan bo‘lishi lozim... o‘qituvchi nutqi hech qachon va hech qayerda zaharxandali, qo‘pol yoki qattiq bo‘lishi mumkin emas. Ars paytida o‘qituvchining o‘zini tuta olmasligi ishni buzishi mumkin.

Tahlil va natijalar. Zamnaviy maktab o‘qituvchisi qator vazifalarni bajaradi. O‘qituvchi – sinfdagi o‘quv jarayoni tashkilotchisidir. O‘qituvchi o‘quvchilar uchun dars payti, qo‘srimcha darslarda va shu bilan birga darsdan tashqari hollarda ham kerakli maslahatlar berishda bilimlar manbaidan biridir.

Ko‘pchilik o‘qituvchilar sinf rahbari vazifasini bajarib, tarbiya jarayoni tashkilotchilari bo‘lib hisoblanadilar. Zamnaviy o‘qituvchi ijtimoiy psixolog bo‘lmasligi mumkin emas. Shuning uchun ham o‘quvchilar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarni yo‘lga sola olishi, bolalar jamoasida ijtimoiy-psixologik mexanizmlardan foydalanishni bilishi zarurdir. Ma’lumki, pedagogik faoliyat – kishi mehnatining eng murakkab sohalaridan biridir. Jamiat tomonidan qo‘yiladigan talablaridan eng muhim o‘qituvchining shaxsi va uning kasbi bilan bog‘liq xislatlariga qaratilgan.

O‘qituvchining eng muhim shaxsiy xislatlari quyidagilardir:

- o‘qituvchining o‘z Vataniga sodiqligi, bolalarni sevishi, ularni insonparvarlik ruhida tarbiyalash istagi, o‘z yurti, ona tili, o‘z xalqining tarixi va uning madaniyatini sevishi, davlatning mustaqilligi g‘oyasida yashashidan iboratdir;
- ijtimoiy javobgarlikni yuksak darajad his etishi;
- oljanobligi, aql-farosatli, ma’naviy pok;
- o‘zini qo‘lga ola bilishi, sabr-toqattli, bardam, matonatliligidir.[4,4]

Jamiyatning o‘qituvchilik kasbiga qo‘yadigan asosiy talablari quyidagichadir:

- keng bilim saviyasiga ega bo‘lishi, turli bilimlardan xabardor bo‘lishi;
- yosh pedagogik psixiologiya, ijtimoiy psixiologiya va pedagogika, yosh fiziologiyasi hamda makyab gigiyenasidan chuqur bilimlarga ega bo‘lishi;
- o‘zi dars beradigan fan bo‘yicha mustahkam bilimga ega bo‘lib, o‘z kasbi, sohasida jahon fanida erishilgan yangi yutuq va kamchiliklardan xabardor bo‘lishi;
- ta’lim va tarbiya metodikasini egallashi;
- o‘z ishiga ijodiy yondashishi;
- boalarni bilishi, uning ichki dunyosini tushuna olishi;
- pedagogik taxnikani (mantiq, nutq, ta’limning ifodali vositalari) va pedagogik taktga ega bo‘lishi;
- o‘qituvchining o‘z bilim va pedagogik mahoratini doimiy ravishda oshirib borishi. Har bir o‘qituvchi ana shu talablarga eng yuqori darajada mos keladigan bo‘lishi uchun intilishi kerak.

O‘qituvchiga jamiat tomonidan qo‘yiladigan talablar, turli xillagi ijtimoiy kutishlar, pedagogning individualligi, uning, shu tariqa talablarga javob berishga subyektiv tayyorgarligi muayyan o‘qituvchining pedagogik faoliyatga naqadar tayyorgarligidan dalolat beradi.

Muhim davlat vazifasini – kadrlar tayyorlash milliy dasturini amalga oshirayotgan zamnaviy maktab o‘qituvchisining xislatlari, uning ijodiy faoliyati, asosan, amaliy ishda, pedagogik tajribalarini egallash jarayonida o‘sib rivojlanana boradi. Shu bilan birga o‘qituvchi doimiy ravishda o‘z malakasini oshirib, o‘z ishining muvaffaqiyatini yuqori darajada ta’minalashga yordam beradigan shaxsiy xislatlarini tarbiyalab borishi zarur.

Endilikda global o‘zgarishlar, fan-texnika va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining kun sayin rivojlanib borishi o‘qituvchidan yuksak mahoratni, o‘tkir irodani, psixologik quvvatni, chuqur bilim va mulohazali bo‘lishni talab qiladi. Hozirgi zamon o‘qituvchisi o‘z mutaxassisligiga oid bilimlar bilan birga, pedagogik va psixologik bilimlarni, hamda turli fan

Index: [google scholar](#), [research gate](#), [research bib](#), [zenodo](#), [open aire](#).

https://scholar.google.com/scholar?hl=ru&as_sdt=0%2C5&q=wosjournals.com&btnG

<https://www.researchgate.net/search/publication?q=worldly%20knowledge>

<https://journalseeker.researchbib.com/view/issn/3060-4923>

yo‘nalishlari bo‘yicha maxsus bilimlarga ega bo‘lgan, kasbiy tayyorgarlik, yuksak axloqiy fazilatlarni egallagan, ta‘lim muassasalarida faoliyat ko‘rsatuvchi shaxsdir.

Ushbu nuqtai nazardan hozirgi kunda quyidagi burch va mas‘uliyatlar o‘qituvchilardan talab qilinadi:

- o‘qituvchi eng avvalo mas‘uliyatni his etuvchi tarbiyachi, tajribali notiq, madaniyat va ma‘rifat targ‘ibotchisidir;
- o‘qituvchi tabiatan o‘quvchilarni seva olishi, o‘z mehrini, his-tuyg‘ularini har lahzada o‘quvchilar ichki dunyosi bilan bog‘lay olishi, ularning ham mehriga, hurmatiga sazovor bo‘lishi kerak;
- o‘qituvchi jamiyat ijtimoiy hayotida ro‘y berayotgan o‘zgarishlar, olib borilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar mohiyatini chuqur anglab etishi va ularga xolisona baho berib, bu borada o‘quvchilarga to‘g‘ri, asosli ma‘lumotlarni doimiy bera olishi lozim;
- zamonaviy o‘qituvchining ilm-fan, texnika va axborot-kommunikatsion texnologiyalari yangiliklaridan va yutuqlaridan xabardor bo‘lib borishi talab etiladi;
- o‘qituvchi o‘z mutaxassisligi bo‘yicha chuqur va puxta bilimga ega bo‘lishi, barcha fanlar integratsiyasini o‘zlashtirib borishi, bunda o‘z ustida tinimsiz ilmiy izlanishlar olib borishi;
- o‘qituvchi pedagogika va psixologiya fanlari asoslarini puxta bilishi, o‘quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda ta‘limtarbiya faoliyatini tashkil etishi kerak;
- o‘qituvchi kasbiy pedagogik faoliyatida ta‘lim va tarbiyaning eng samarali zamonaviy shakl, metod va vositalaridan unumli foydalana olish imkoniyatiga ega bo‘lmog‘i lozim;
- o‘qituvchi ijodkor, ta‘lim-tarbiyaviy faoliyat tashabbuskori va yosh avlod kelajagi uchun javobgar shaxsdir;
- o‘qituvchi kasbiy faoliyati jarayonida yuksak darajadagi pedagogik mahorat, kommunikativ layoqati, pedagogik texnika (nutq, yuz, qo‘l-oyoq va gavda harakatlari, mimika, pantomimika, takt) qoidalarini chuqur o‘zlashtirib borishi shart.

O‘qituvchi nutq madaniyatiga ega bo‘lishi zarur, uning nutqi quyidagi xususiyatlarni o‘zida aks ettirishi kerak: turli sheva so‘zlardan holi bo‘lib, faqat adabiy tilda ifoda etilishi, o‘qituvchining nutqi sodda, ravon va tushunarli bo‘lishi, hikmatli so‘zlar, ibora va maqollar, matallar hamda ko‘chirma gaplardan o‘rinli foydalana olishi lozim.

Hozirgi sharoitda jamiyatning o‘qituvchilik kasbiga nisbatan qo‘yayotgan talablari kun sayin ortib bormokda va bu talablarni amalda to‘g‘ri tashkil qilish vazifasi o‘qituvchiga bog‘liq. Zamonaviy maktab o‘qituvchisi qator vazifalarni bajaradi. O‘qituvchi avvalo sinfdagi tarbiyaviy jarayonning tashkilotchisidir.

O‘qituvchi tarbiyachi sifatida quyidagi talablarni bilishi lozim:

- shaxsni ma‘naviy va ma‘rifiy jihatdan tarbiyalashda milliy uyg‘onish mafkurasing hamda umuminsoniy boyliklarning mohiyatini bilishi, bolalarni mustaqillik g‘oyalariga sodiqlik ruhida tarbiyalashi, o‘z Vataniga, tabiatga va oilasiga bo‘lgan muxabbati;
- kasbiy bilimlarni puxta bilish bilan birga, turli bilimlardan xabardor bo‘lishi; • yosh pedagogik psixologiya, pedagogika va psixologiya, yoshlar fiziologiyasi, tarbiyaviy ish metodikasi, maktab gigienasidan o‘z kasbiga oid bilimlarni mukammal bilishi;
- o‘z kasbi bo‘yicha jahon fanida erishilayotgan so‘nggi yutuqlar, tarbiya texnologiyasi, kompyuter va axborot texnologiyalari, yangiliklaridan doimiy xabardor bo‘lib borishi;
- ta‘lim-tarbiya metodikasidan ko‘nikma va malakalarini oshirib borishi;
- o‘z kasbiga ijodiy yondashishi;
- pedagogik texnika (mantiq, nutq ta‘limining ifodali vositalari) va pedagogik taktga ega bo‘lishi;
- o‘z bilimi va pedagogik mahoratini doimiy ravishda oshirib borishi.[5,3]

Index: [google scholar](#), [research gate](#), [research bib](#), [zenodo](#), [open aire](#).

https://scholar.google.com/scholar?hl=ru&as_sdt=0%2C5&q=wosjournals.com&btnG

<https://www.researchgate.net/search/publication?q=worldly%20knowledge>

<https://journalseeker.researchbib.com/view/issn/3060-4923>

Xulosa. Muvaffaqiyatli ishslash uchun har bir o‘qituvchi pedagogik mahoratga ega bo‘lishi zarur. Pedagogik mahoratning asosiy qonuniyati oz mehnat sarf qilib, ulkan natijalarga erishish. Ijodkorlik uning hamisha hamrohi bo‘ladi. Pedagogik faoliyatga qiziqqan, qobiliyatli, iste‘dodli kishidagina pedagogik mahorat hislatlari shakllanib boradi.

Pedagogik faoliyat o‘z mohiyatiga ko‘ra ijodiy xarakterga ega. O‘qituvchi o‘quvchi shaxsini shakllantiradi, kutilmagan vaziyatlarda mustaqil qarorlar qabul qiladi, pedagogik muammolarni yechadi, o‘quv jarayonini mustaqil boshqaradi. Bularning hammasi ijodkorlikning tub mohiyati, ishning maqsadi va xarakteri bilan bog‘liq. Pedagogik mahoratga ega bo‘lgan o‘qituvchigina. O‘z kasbiy faoliyatida ulkan zafarlarga erishadi.

Foydalanimgan adabiyotlar

1. Jabborov M. “Komil inson g‘oyasi: tarixiy-falsafiy tahlil”, Toshkent, “Ibn Sino”, 2000-yil.
2. Mahmudov.T. Mustaqillik va ma’naviyat.-T., “Sharq”.2001, 6-12-b.
3. Mirqosimova, M.M. (2020) Talabalarda analitik tafakkurni rivojlantirish texnologiyasi.// NamDU ilmiy axborotnomasi - Nauchniy vestnik NamGU 2020 yil 4-son. –B. 479
4. Murodjon o‘g‘li, U. I. (2024). “TARIXIY TAFAKKUR” VA “KASBIY KOMPETENTLIK” TUSHUNCHALARINING IJTIMOIY-FALSAFIY VA PEDAGOGIK TALQINI: Yangi O‘zbekiston taraqqiyotida tadqiqotlar o‘rni va rivojlanish omillari. *Yangi O‘zbekiston taraqqiyotida tadqiqotlarni o‘rni va rivojlanish omillari*, 4(2), 55-63.
5. Усмоналиев, И. (2022). Bo‘lajak o‘qituvchilar kasbiy kompetensiyasini tarixiy tafakkur asosida takomillashtirish zarurati va muammoning amaliyotdagi holati. *Общество и инновации*, 3(5/S), 132-141.
6. Sobirjonovich, S. I. (2023). Systemic Organization of Professional Competence, Creativity and Innovative Activity of A Future Kindergartener. *Journal of Pedagogical Inventions and Practices*, 19, 108-112.
7. Soliyev, I., TIZIMIDA, B. S. M. T. L., & PEDAGOGIK, I. Y. U. A. V. (2023). SHART-SHAROITLARI.
8. Taxirovich, A. S. (2023). The Main Etiological Factors, Methods of Prevention and Treatment of Meningitis. *International Journal of Scientific Trends*, 2(2), 141-148.
9. qizi Turdaliyeva, N. A. (2024). MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR IJODIY QOBILIYATLARNI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI. *GOLDEN BRAIN*, 2(7), 48-52.
10. Pakirdinov, A. S., Madazimov, M. M., & Abdukadirov, D. A. (2022). Features of gastric and duodenal ulcers in elderly patients. *World Bulletin of Public Health*, 13, 63-66.
11. Abdurashidov, A., & Turdaliyeva, N. (2023). DEVELOPMENT OF MANUAL WORK IN PRE-SCHOOL EDUCATION. *Science and innovation*, 2(B2), 282-286.
12. Qizi, B. O. S., Qizi, X. D. A., & Yusupovich, M. I. (2022). IJTIMOIY SIYOSAT: ROSSIYADA INKLYUZIV TA? LIM HAQIDA. *FAN, TA'LIM VA AMALIYOTNING INTEGRASIYASI*, 922-930.
13. Yusup o‘g‘li, M. I. (2022). Mustaqil ta’limni blended learning texnologiyasi asosida tashkil etish. *FAN, TA'LIM VA AMALIYOTNING INTEGRASIYASI*, 126-131.
14. Kuzieva, S. U., Imomova, D. A., & Duschanova, G. M. (2019). Structural features of vegetative organs *Spiraea hypericifolia* L., growing in Uzbekistan. *American Journal of Plant Sciences*, 10(11), 2086-2095.

15. Yusup o‘g‘li, M. I. (2024). OLIY TA’LIM MUASSALARIDA INKLYUZIV TA’LIMNI RIVOJLANTIRISH: MUAMMO VA YECHIMLAR. *FAN, TA'LIM VA AMALIYOTNING INTEGRASIYASI*, 5(1), 1-10.

16. Кузиева, С. У., & Ишонкулова, Д. У. (2018). ВЫДЕЛЕНИЕ И ЭЛЕКТРОФОРЕТИЧЕСКИЕ СВОЙСТВА МАЛАТДЕГИДРОГЕНАЗЫ ХЛОПЧАТНИКА. In *INTERNATIONAL SCIENTIFIC REVIEW OF THE PROBLEMS AND PROSPECTS OF MODERN SCIENCE AND EDUCATION* (pp. 14-16).